

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport

2025-yil uchun


- I. Jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar (uy xo'jaliklari a'zolari)
- II. Sport inshootlari
- III. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar
- IV. Sport-ta'lim muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari
- V. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar (uy xo'jaliklari a'zolari)

Jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar (uy xo'jaliklari a'zolari) ulushi uy xo'jaliklari a'zolarining umumiy sonida jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan uy xo'jaliklari a'zolarining ulushini tavsiflaydi.

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar (uy xo'jaliklari a'zolari) ulushining o'sishi kuzatilgan. 2025-yilda mazkur ko'rsatkich **70,3 % ni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **2,5 f.p. ga** oshdi.

Jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar (uy xo'jaliklari a'zolari) ulushi (tegishli yil uchun)



Gender kesimida 2025-yilda jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan erkaklar ulushi **72,2 % ni**, ayollar ulushi esa **68,4 % ni** tashkil etdi. 2024-yilga nisbatan bu ko'rsatkich ayollar orasida **4,7 f.p. ga**, erkaklar orasida esa **0,5 f.p. ga** oshdi.

Hududiy kesimda 2025-yilda jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar ulushi shahar joylarda **70,2 % ni**, qishloq joylarda esa **70,4 % ni** tashkil etdi. 2024-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich shahar joylarda **1,9 f.p. ga**, qishloq joylarda esa **3,1 f.p. ga** oshdi.


II. Sport inshootlari

Sport inshooti – sport tadbirlari, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan, belgilangan normalar va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq turdagi ixtisoslashtirilgan inshoot.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasida sport inshootlari soni **53,0 mingtani** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **0,3 mingtaga**, yoki **0,6 % ga** kamaydi. Sport inshootlarining quvvati (o'tkazish imkoniyati) **bir kunda 2 198,1 ming kishini** tashkil etib, **2,7 ming kishiga**, yoki **0,1 % ga** qisqardi.

Sport inshootlari soni hamda ularning quvvati (o'tkazish imkoniyati)

(tegishli yil uchun)



2025-yilda shahar joylardagi sport inshootlari soni **24,5 mingtani** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **0,1 mingtaga** qisqardi, qishloq joylarda esa **28,5 mingtani** tashkil etib, **0,2 mingtaga** kamaydi.

2025-yilda shahar joylardagi sport inshootlarining quvvati (o'tkazish imkoniyati) **bir kunda 1 111,9 ming kishini** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **2,3 ming kishiga** qisqardi, qishloq joylarda esa **bir kunda 1 086,2 ming kishini** tashkil etib, **0,4 ming kishiga** kamaydi.

Shunday qilib, 2025-yilda 2024-yilga nisbatan sport inshootlari soni ham, ularning o'tkazish imkoniyati ham bir oz qisqargani kuzatildi. Bunda sport inshootlari soni bo'yicha qishloq joylar ustunlik qilishda davom etgan bo'lsa, o'tkazish imkoniyati bo'yicha yuqoriroq ko'rsatkich shahar joylarda saqlanib qolgan.

Sport inshootlari soni hamda ularning quvvati (o'tkazish imkoniyati)ning hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun)

	Sport inshootlari soni (ming birlik)			Sport inshootlarining quvvati (o'tkazish imkoniyati) (bir kunda ming kishi)		
	Jami	shahar joylarda	qishloq joylarda	Jami	shahar joylarda	qishloq joylarda
O'zbekiston Respublikasi	53,0	24,5	28,5	2 198,1	1 111,9	1 086,2
<i>hududlar:</i>						
Qoraqalpog'iston Resp.	3,7	1,9	1,8	152,2	80,5	71,7
Andijon viloyati	5,4	3,1	2,3	202,6	112,8	89,8
Buxoro viloyati	3,3	0,7	2,6	136,2	39,2	97,0
Jizzax viloyati	2,6	0,8	1,8	107,7	39,5	68,2
Qashqadaryo viloyati	5,2	2,3	2,9	212,3	96,1	116,2
Navoiy viloyati	1,8	0,9	0,9	80,1	45,8	34,3
Namangan viloyati	3,9	2,4	1,5	177,8	118,8	59,0
Samarqand viloyati	5,9	2,1	3,8	238,3	96,4	141,9
Surxondaryo viloyati	3,9	1,1	2,8	147,0	49,1	97,9
Sirdaryo viloyati	1,6	0,7	0,9	72,9	29,9	43,0
Toshkent viloyati	4,6	2,3	2,3	189,1	100,6	88,5
Farg'ona viloyati	6,2	3,2	3,0	239,1	136,4	102,7
Xorazm viloyati	2,8	0,9	1,9	116,8	40,8	76,0
Toshkent shahri	2,1	2,1	-	126,0	126,0	-

2025-yilda sport inshootlarining eng ko'p soni Farg'ona (**6,2 ming**), Samarqand (**5,9 ming**) va Andijon (**5,4 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**1,6 ming**), Navoiy (**1,8 ming**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**2,1 ming**) kuzatildi.


2025-yilda sport inshootlarining quvvati (o'tkazish imkoniyati) bo'yicha Farg'ona (**bir kunda 239,1 ming kishi**), Samarqand (**bir kunda 238,3 ming kishi**) va Qashqadaryo (**bir kunda 212,3 ming kishi**) viloyatlari yetakchilik qildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**bir kunda 72,9 ming kishi**), Navoiy (**bir kunda 80,1 ming kishi**) va Jizzax (**bir kunda 107,7 ming kishi**) viloyatlarida qayd etildi.

III. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar

Jismoniy tarbiya – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar soni **7 252,0 ming nafarni** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **158,8 ming nafarga**, yoki **2,2 % ga** oshdi.

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar soni (tegishli yil uchun, ming kishi)



Gender kesimida jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi ayollar soni **3 521,6 ming nafarni** tashkil etdi va **74,3 ming nafarga**, yoki **2,2 % ga** oshdi, erkaklar soni esa **3 730,4 ming nafarni** tashkil etdi va **84,5 ming nafarga**, yoki **2,3 % ga** ko'paydi. Xuddi o'tgan yildagidek, erkaklar soni ayollar sonidan ko'p bo'ldi. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar tarkibida ayollar ulushi **48,6 % ni**, erkaklar ulushi esa **51,4 % ni** tashkil etdi.

Hududiy kesimda 2025 yilda shahar joylarda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar soni **3 210,0 ming nafarni** tashkil etdi va 2024 yilga nisbatan **101,2 ming nafarga**, yoki **3,3 % ga** oshdi. Qishloq joylarda mazkur ko'rsatkich **4 042,0 ming nafarni** tashkil etib, **57,6 ming nafarga**, yoki **1,4 % ga** ko'paydi.

**Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi
shaxslar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun, ming kishi)

	Jami	shundan:			
		ayollar	erkaklar	shahar joylarda	qishloq joylarda
O'zbekiston Respublikasi	7 252,0	3 521,6	3 730,4	3 210,0	4 042,0
<i>hududlar:</i>					
Qoraqalpog'iston Resp.	394,0	192,6	201,4	204,1	189,9
Andijon viloyati	655,2	311,8	343,4	246,6	408,6
Buxoro viloyati	355,0	176,1	178,9	76,3	278,7
Jizzax viloyati	302,5	133,1	169,4	92,4	210,1
Qashqadaryo viloyati	699,1	340,8	358,3	202,8	496,3
Navoiy viloyati	203,8	99,9	103,9	121,7	82,1
Namangan viloyati	593,6	286,2	307,4	366,1	227,5
Samarqand viloyati	981,4	492,1	489,3	375,4	606,0
Surxondaryo viloyati	568,2	278,1	290,1	144,5	423,7
Sirdaryo viloyati	169,7	81,6	88,1	55,2	114,5
Toshkent viloyati	560,7	261,4	299,3	273,0	287,7
Farg'ona viloyati	840,3	421,4	418,9	423,8	416,5
Xorazm viloyati	378,5	186,1	192,4	78,1	300,4
Toshkent shahri	550,0	260,4	289,6	550,0	-

2025-yilda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslarning eng yuqori soni Samarqand (**981,4 ming**), Farg'ona (**840,3 ming**) va Qashqadaryo (**699,1 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**169,7 ming**), Navoiy (**203,8 ming**) va Jizzax (**302,5 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Gender kesimida hududlarning aksariyatida jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida erkaklar ulushi ayollar ulushidan yuqori bo'ldi. Ayollarning eng yuqori ulushi Samarqand va Farg'ona viloyatlarida (**har birida 50,1 %**), shuningdek, Buxoro viloyatida (**49,6 %**) kuzatildi. Shu bilan birga, erkaklarning eng yuqori ulushi Jizzax (**56,0 %**) va Toshkent (**53,4 %**) viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida (**52,7 %**) qayd etildi.

Shahar joylarda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning eng yuqori soni Toshkent shahri (**550,0 ming**), Farg'ona (**423,8 ming**) va Samarqand (**375,4 ming**) viloyatlarida qayd etildi, eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**55,2 ming**), Buxoro (**76,3 ming**) va Xorazm (**78,1 ming**) viloyatlarida kuzatildi. Qishloq joylarda esa eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (**606,0 ming**), Qashqadaryo (**496,3 ming**) va Surxondaryo (**423,7 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Hududlar orasida eng past ko'rsatkichlar Navoiy (**82,1 ming**), Sirdaryo (**114,5 ming**) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**189,9 ming**) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar soni \(jami\)](#)

[Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar soni \(ayollar\)](#)

[Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxslar soni \(erkaklar\)](#)


IV. Sport-ta'lim muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

Sport – odamlarning muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo'lgan havaskorlik asosidagi va (yoki) professional asosdagi faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko'rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasida sport-ta'lim muassasalari soni **404 tani** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **1 taga**, yoki **0,2 % ga** oshdi. Sport-ta'lim muassasalaridagi guruh (seksiya)lar soni esa **39,5 mingtani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **0,4 mingtaga**, yoki **1,0 % ga** ko'paydi.

Sport-ta'lim muassasalari hamda ulardagi guruh (seksiya)lar soni

(tegishli yil uchun)



2025-yilda shahar joylarda sport-ta'lim muassasalari soni **353 tani** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **2 taga** oshdi, qishloq joylarda esa ularning soni **51 tani** tashkil etib, **1 taga** kamaydi.

2025-yilda shahar joylarda sport-ta'lim muassasalaridagi guruh (seksiya)lar soni **33,4 mingtani** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **0,5 mingtaga** oshdi, qishloq joylarda esa mazkur ko'rsatkich **6,1 mingtani** tashkil etib, **0,1 mingtaga** qisqardi.

Shunday qilib, 2025-yilda 2024-yilga nisbatan sport-ta'lim muassasalari soni ham, ulardagi guruh (seksiya)lar soni ham bir oz oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, har ikki toifada ham shahar joylar ko'rsatkichlari ustunlik qildi.

**Sport-ta'lim muassasalari hamda ulardagi guruh (seksiya)lar
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun)


	Sport-ta'lim muassasalari soni (birlik)			Sport-ta'lim muassasalaridagi guruh (seksiya)lar soni (ming birlik)		
	Jami	shahar joylarda	qishloq joylarda	Jami	shahar joylarda	qishloq joylarda
O'zbekiston Respublikasi	404	353	51	39,5	33,4	6,1
<i>hududlar:</i>						
Qoraqalpog'iston Resp.	29	28	1	3,4	3,3	0,1
Andijon viloyati	29	26	3	2,9	2,6	0,3
Buxoro viloyati	31	21	10	4,2	2,3	1,9
Jizzax viloyati	22	21	1	1,6	1,5	0,1
Qashqadaryo viloyati	31	29	2	2,6	2,3	0,3
Navoiy viloyati	24	22	2	2,0	1,8	0,2
Namangan viloyati	26	24	2	3,0	2,9	0,1
Samarqand viloyati	31	26	5	4,1	3,5	0,6
Surxondaryo viloyati	24	20	4	3,1	2,6	0,5
Sirdaryo viloyati	21	21	-	1,6	1,6	-
Toshkent viloyati	34	24	10	3,1	2,2	0,9
Farg'ona viloyati	34	30	4	3,5	3,0	0,5
Xorazm viloyati	27	20	7	2,0	1,4	0,6
Toshkent shahri	41	41	-	2,4	2,4	-

2025-yilda sport-ta'lim muassasalarining eng ko'p soni Toshkent shahri (**41 ta**) hamda Toshkent va Farg'ona viloyatlarida (**har birida 34 tadan**) qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**21 ta**), Jizzax (**22 ta**), shuningdek, Navoiy va Surxondaryo (**har birida 24 tadan**) viloyatlarida kuzatildi. Shahar joylarda sport-ta'lim muassasalarining eng ko'p soni Toshkent shahri (**41 ta**), Farg'ona (**30 ta**) va Qashqadaryo (**29 ta**) viloyatlarida qayd etildi, eng past ko'rsatkichlar esa Surxondaryo va Xorazm (**har birida 20 tadan**), shuningdek, Buxoro, Jizzax va Sirdaryo (**har birida 21 tadan**) viloyatlarida kuzatildi. Qishloq joylarda eng yuqori ko'rsatkichlar Buxoro, Toshkent (**har birida 10 tadan**) hamda Xorazm (**7 ta**) viloyatlarida qayd etildi, eng past ko'rsatkichlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyatida (**har birida 1 tadan**) kuzatildi.

2025-yilda sport-ta'lim muassasalaridagi guruh (seksiya)lar soni bo'yicha Buxoro (**4,2 mingta**), Samarqand (**4,1 mingta**) va Farg'ona (**3,5 mingta**) viloyatlari yetakchilik qildi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax, Sirdaryo (**har birida 1,6 mingtadan**), shuningdek, Navoiy va Xorazm (**har birida 2,0 mingtadan**) viloyatlarida qayd etildi. Shahar joylarda guruh (seksiya)lar sonining eng yuqori ko'rsatkichlari Samarqand viloyati (**3,5 mingta**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**3,3 mingta**) va Farg'ona viloyatida (**3,0 mingta**) kuzatildi, eng past ko'rsatkichlar esa Xorazm (**1,4 mingta**), Jizzax (**1,5 mingta**) va Sirdaryo (**1,6 mingta**) viloyatlarida qayd etildi.

Qishloq joylarda eng yuqori ko'rsatkichlar Buxoro (**1,9 mingta**), Toshkent (**0,9 mingta**), shuningdek, Samarqand va Xorazm (**har birida 0,6 mingtadan**) viloyatlarida qayd etildi, eng past ko'rsatkichlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Namangan viloyatlarida (**har birida 0,1 mingtadan**) kuzatildi.

**Sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida
shug'ullanuvchi shaxslar soni**
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025-yilda O'zbekistonda sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi shaxslar soni **486,5 ming nafarni** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **41,1 ming nafarga**, yoki **7,8 % ga** qisqardi.

Gender kesimida sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi ayollar soni **125,2 ming nafarni** tashkil etib, **9,3 ming nafarga**, yoki **6,9 % ga** kamaydi, erkaklar soni esa **361,3 ming nafarni** tashkil etib, **31,8 ming nafarga**, yoki **8,1 % ga** qisqardi. 2025-yilda ayollar ulushi **25,7 % ni**, erkaklar ulushi **esa 74,3 % ni** tashkil etdi. Xuddi o'tgan yildagidek, sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi shaxslar orasida erkaklar ustunlik qildi.

Hududiy kesimda 2025-yilda shahar joylarda sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi shaxslar soni **405,9 ming nafarni** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **34,5 ming nafarga**, yoki **7,8 % ga** kamaydi. Qishloq joylarda mazkur ko'rsatkich **80,6 ming nafarni** tashkil etib, **6,6 ming nafarga**, yoki **7,6 % ga** qisqardi. Shu bilan birga, o'tgan yildagidek, shahar joylarda shug'ullanuvchilar soni qishloq joylardagiga nisbatan ancha yuqori bo'lib qoldi.

Sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi shaxslar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun, ming kishi)

	Jami	shundan:			
		ayollar	erkaklar	shahar joylarda	qishloq joylarda
O'zbekiston Respublikasi	486,5	125,2	361,3	405,9	80,6
<i>hududlar:</i>					
Qoraqalpog'iston Resp.	42,8	13,4	29,4	41,9	0,9
Andijon viloyati	33,5	7,5	26,0	29,9	3,6
Buxoro viloyati	49,2	13,7	35,5	24,9	24,3
Jizzax viloyati	20,5	6,1	14,4	19,2	1,3
Qashqadaryo viloyati	33,5	6,9	26,6	29,6	3,9
Navoiy viloyati	23,3	6,2	17,1	20,6	2,7
Namangan viloyati	34,3	8,4	25,9	32,7	1,6
Samarqand viloyati	54,8	12,5	42,3	45,2	9,6
Surxondaryo viloyati	33,4	7,8	25,6	28,1	5,3
Sirdaryo viloyati	23,8	7,8	16,0	23,8	-
Toshkent viloyati	42,2	10,3	31,9	30,1	12,1
Farg'ona viloyati	46,7	11,3	35,4	38,9	7,8
Xorazm viloyati	23,7	6,8	16,9	16,2	7,5
Toshkent shahri	24,8	6,5	18,3	24,8	-

2025-yilda sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi shaxslarning eng yuqori soni Samarqand (**54,8 ming**), Buxoro (**49,2 ming**) va Farg'ona (**46,7 ming**) viloyatlarida qayd etildi. Eng past ko'rsatkichlar esa Jizzax (**20,5 ming**), Navoiy (**23,3 ming**) va Xorazm (**23,7 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Gender kesimida barcha hududlarda sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchi shaxslar orasida erkaklar ulushi ayollar ulushidan yuqori bo'ldi. Ayollarning eng yuqori ulushi Sirdaryo viloyati (**32,8 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**31,3 %**) va Jizzax viloyatida (**29,8 %**) kuzatildi. Shu bilan birga, erkaklarning eng yuqori ulushi Qashqadaryo (**79,4 %**), Andijon (**77,6 %**) va Samarqand (**77,2 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Shahar joylarda sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida shug'ullanuvchilarning eng yuqori soni Samarqand viloyati (**45,2 ming**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**41,9 ming**) va Farg'ona viloyatida (**38,9 ming**) qayd etildi, eng past ko'rsatkichlar esa Xorazm (**16,2 ming**), Jizzax (**19,2 ming**) va Navoiy (**20,6 ming**) viloyatlarida kuzatildi. Qishloq joylarda esa eng yuqori ko'rsatkichlar Buxoro (**24,3 ming**), Toshkent (**12,1 ming**) va Samarqand (**9,6 ming**) viloyatlarida qayd etildi, eng past ko'rsatkichlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (**0,9 ming**), Jizzax (**1,3 ming**) va Namangan (**1,6 ming**) viloyatlarida kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sport-ta'lim muassasalarining guruh \(seksiya\)larida shug'ullanuvchi shaxslar soni \(jami\)](#)

[Sport-ta'lim muassasalarining guruh \(seksiya\)larida shug'ullanuvchi ayollar soni](#)

[Sport-ta'lim muassasalarining guruh \(seksiya\)larida shug'ullanuvchi erkaklar soni](#)

[Olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida ayollar ulushi](#)

[Olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida erkaklar ulushi](#)

[Milliy sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida ayollar ulushi](#)

[Milliy sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida erkaklar ulushi](#)

[Boshqa sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida ayollar ulushi](#)

[Boshqa sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar orasida erkaklar ulushi](#)

**V. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha uslubiy tushuntirishlar
va metama'lumotlar**

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport statistikasi mazkur sohaning rivojlanishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni, jumladan, sport inshootlari soni va ularning quvvatini, shuningdek, muntazam ravishda sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar sonini qamrab oladi.

Jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan shaxslar (uy xo'jaliklari a'zolari) bo'yicha statistik ma'lumotlar uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur ko'rsatkich jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullangan uy xo'jaliklari a'zolarining ulushini kuzatuv bilan qamrab olingan uy xo'jaliklari a'zolari umumiy soniga nisbatan ifodalaydi hamda respublika bo'yicha jami, shuningdek, jins, yashash joyi turi va hududlar kesimida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida shakllantiriladi. Buning uchun **1-jismoniy tarbiya** "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha idoraviy hisobot", **1-sport** "Sport-ta'lim muassasalari bo'yicha idoraviy hisobot" yillik shakllari, shuningdek, boshqa ma'muriy ma'lumotlardan foydalaniladi.

Ma'muriy ma'lumotlar jismoniy tarbiya va sport obyektlari soni to'g'risidagi ma'lumotlarni turlari bo'yicha, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar sonini, sport-ta'lim muassasalari sonini, ulardagi o'quvchilar va murabbiylar tarkibi sonini, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika bo'yicha jami va hududlar kesimida taqdim etiladi.

Jamlangan ma'lumotlar jismoniy tarbiya va sport rivojlanishini monitoring qilish, tahliliy materiallar tayyorlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni \(24.03.2026-yildagi O'RO-1123-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni \(24.01.2020 yildagi PF-5924-son\) Jismoniy tarbiya va sport statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1301)

